

ULUG'BEK HAMDAMNING "TOSH YOKI YOVUZLIKNING TUG'ILISHI" HIKoyASIDA QAHRAMON ICHKI KONFLIKTI VA SHAXS PSIXOLOGIYASI TASVIRI

Bobur Nusratov Bahodir o'g'li

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat ona tili va adabiyot universiteti bitiruvchisi

Annotatsiya: *Maqolada yozuvchi Ulug'bek Hamdamning "Tosh yoki yovuzlikning tug'ilishi" hikoyasida obraz ichki va tashqi konflikti, psixologik kechinmalarining badiiy talqini va fabulaning asar kompozitsiyasiga ta'siri badiiy-ilmiy asoslarda tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *konflikt, simvolizm, ramzlashtirish, fabula, detall, motiv, badiiy-kommunikativlik, differentsiatsiya, ichki nutq, obraz psixologiyasi, fenomal sujet, kompozitsiya, syurrealistik talqin.*

Badiiy asar deb atalmish chin iste'dod sohib va sohibalari tomonidan yaratilgan mukammal ijod namunasini hali hech bir adabiyotshunos to'liq anglay olgan emas va anglab ham bo'lmaydi. Chunki ijodkor chiqqan cho'qqining yolg'izoyoq yo'llaridagi sir-sinoat va mashqqatlar faqat ungagina a'yondir. Faqatgina mohir adabiyotshunos o'z cho'qqisidan turib yozuvchi qoyasiga termulishi va haminqadar asarni tushuntirishi mumkin. Buni ilmiy tilda badiiy asar talqini deb ataymiz. Biroq adabiyotshunoslikning bahaybat harsang toshlarini endigina chetga surishga intilib, oradagi tirqishdan bo'ylayotgan bizdek g'o'r tolibi ilm har qancha chiranmasin, ijodkor asarining bor-bo'yini his eta olmaydi.

Shunday ekan baxshi bilganini o'qir deganlaridek, quyida Ulug'bek Hamdamning "Tosh" hikoyasi ma'no qatlarini ilmimiz yetganicha ochiqlashga harakat qilamiz va sinchi ustozlar va kitobxondan mubolag'aga yo'l qo'ygan o'rinlarimizda ma'zur tutishlarini so'rab, to'g'ri yo'lga boshqarishlariga umid chirog'imizni miltillatib ko'z tikamiz. Zero "bilmaganni so'rab o'rgangan olim..." deydi.

Avvalo, "Tosh" hikoyasiga qo'yilgan ikkilamchi nom, "Yovuzlikning tug'ilishi" haqida fikr yuritsak. Simvolizatsiya (ramzlashtirish) asosida mavzudayoq o'quvchi tafakkurida bir qancha tosh bilan bog'liq metaforalar akslana boshlaydi. Tosh yurak, tosh dil, qahri qattiq, toshmehr kabi ko'chimlarga asos bo'luvchi tosh detali orqali inson botiniga nazar tashlaymiz. Lekin qanday? Qanday qilib yovuzlik tug'iladi va nega aynan yovuzlik? Shunday savollar bilan hikoyaning boshlamasiga e'tibor qarataylik:

"Negadir yuragim siqilaveradi. Yo'q, chamasi, nima uchun bu holga tushishimni biladigandekman. Lekin gap bunda emas, balki davomiylikda". Asar stilistikasining qahramon badiiy nutqi bilan start olishi - o'quvchiga fikrlarning qisqa, aniq, lo'nda berilishi orqali badiiy-kommunikativlik hamda estetik funksiya aniq belgilab olinadi. Hikoya bir nafasda o'qishga va qayta va qayta murojaat etish asosiga qurilganini keyinroq bilib olamiz: "qa'rda yotgan o'sha toshga - o'sha kayfiyatga qoqilib tushaveraman, tushaveraman..."

Hikoya nisbatan kichik janr bo'lishiga qaramay mittilikdan ulkan maqsadlarni yaratishga asoslangan formula kabi kompozitsion tuzilgan. "Ustiga ustak, qosh qorayib borayotgandek". Muallifning qahramon ichki psixologiyasining tabiat bilan konfliktini yaratish oldidan uni o'z-

o'ziga qarshilantirib qo'yadi. Bu orqali tasviriy ifodalarning bo'rtma, qabariq chiqishiga imkon paydo bo'ladi. Ichki taftish - bu asarlarda ko'p qo'llanuvchi sujet bo'lib, bunda ijodkor hayotiy reallikdan badiiy reallikka o'quvchini olib kirishda bir qancha qulayliklarga ega bo'ladi. Chunki tafakkur cheklanmagan va hayolning har qanday fantaziyasi hayotiy fabulaga mos kelish-kelmasligida qat'iy nazar uni boricha qabul qilish mumkin. "Tosh" hikoyasi qahramoning xuddi shunday holda rivojlanib borayotgan tipik portreti - umumlashmalikdan o'sib chiqqanligini ko'rish mumkin. Ya'ni u butun insoniyatni, odamiyatni o'zida tasvirlash yukuni qabul qilgan: "Tovba-tovba, na jonim uziladiyu va na la'nati sirtmoq!"

Voqealarning ong osti rivojlanishida obrazlilik, tasviriylik va emotsionallik sodda metaforalarga ko'chadi. Toshdek tuz - tuzdek tosh. Shu birgina zidlanishning o'ziyoq qahramon fikratida bo'linish mavjudligini ko'rsatib beradi. Asar boshidan beri o'z-o'zini ikki tomonga bo'layotgan, odam bo'la turib odamlarga qo'shilib ketolmayotgan, Haqiqiy Odam bo'la olmayotganligidan yozg'irgan bu kimsa "yondosh yo'lakka tushib oladi". Nega yondosh? Inson hayoti davomida ikki chiziqdan birini tanlaydi. Biri to'g'ri, ikkinchisi esa xato. Ehtimol, "daraxtlarning kuzgi qo'shig'ini birrov" tinglab chiqmoqchi bo'lgan hikoya qahramonining qalbidagi tosh asar so'nggida "Yovuzlikka aylanishi" ayni shu qadamdan boshlangandir. Axir fikrlar hodisani yetaklaydi-ku?! (Usmon Nosir, "Yoshlik" she'ridan)

Xuddi ana shu yerda, parkda hikoyaning muhim bir qismi - voqealarning differentsiatsiyasi - yangilangan farqlanishga duch kelamiz: "Ayol!"

Farqlanganlik shundaki, hikoyaning xuddi shu qismidan boshlab to yakunning musiqiy avji eshitilmaguncha Ayolning go'zalligi, betakrorligi, jimjimasi madh etila boshlaydi. Majozan aytsek, tuzoqqa tushgan ko'ngilning chin ma'noda Ayolga, ko'chma ma'noda esa dunyoga, nafsga, orzuga, hayolga, yetib bo'lmas maqsadga, umidga talpinishi boshlanadi.

"Oyoqlar!" Hikoyaning boshidan oxirigacha qo'llangan "ichki nutq" go'yoki voqeaning hozirgina yuz berganligini yoki o'quvchi bilan birgalikda rivojlanayotganligini shunday bir tabiiy holatda tasvirlaydiki, monologik nutqning me'daga teguvchi cho'ziluvchanligi bu hikoyada aslo sezilmaydi. Shu o'rinda, biz hikoyada qo'llangan qahramonning o'z va tashqi olamga bo'lgan konflikti va hikoya qurilishi haqida mantiqiy talqinimizni amalga oshirar ekanmiz, o'tkir tanqidiy fikrlar bildirishni sinchi ustoz va o'qirmanlarga, hozircha, yuklab qo'yamiz. Eslatish joizki, hikoyani talqinining ilmiy-badiiy asosga egaligini isbotlash yo'lidagi ushbu maqolamizda biz o'z fikrlarimizni baholi qudrat ilmiy asoslashga harakat qildik.

Demak, "Oyoqlar!" Bu detalning chuqur ochiqlanishi va oqibatda hikoya qahramoning "ko'plar qatori qarib-churib to'shakda" jon berib nafratlanishida, shuningdek, asar nutqiy tuzilishida tanlab olingan nutqiy so'z imkoniyatlariga birmuncha boy shaxsni inbatga olsak, U - ilm kishisi. Hech bo'lmaganda ziyoli. Hayotning qadriga yetadigan Shaxs! Chunki, aynan shundaylarning hayot va hayolot bilan konfliktlariga, odatda, o'zlari sababchi bo'lishadi. Buni esa hali hech kim sababini izohlab bera olmagan. Fikrimiz isboti bu obraz: "Razzoq deb borardi, "Yordam et!" deb yolborardi".

Shu o'rinda aytish o'rni kelgan bir hodisani eslatsak: hikoya qahramoni ilmi kishi bo'la turib, qalbidagi toshni tashqariga chiqarib yubordi. Buni bir hayotiy dispozitsiya bilan izohlaganda, Odam Atoning o'g'li Hobilning Qobil tomonidan o'ldirilishiga sabab bo'lgan hodisa va baliqchining qo'lida tosh ushlab (shavqatsiz realizm talabiga ko'ra) baliq boshini

ezishi o'rtasidagi bog'liqlik bir tomondan qayta ishlangan badiiy o'zak hisoblansa, bir tomondan bu ishlovning originalligini inobatga olsak, baliq va tosh detali fenomenal(betakror) sujetning paydo bo'lishidagi oltin ip vazifasini o'taydi.

Asar kompozitsiyasi yakunlovchi qismdan avvalgi jarayon, qahramonning baliq sotuvchisiga ro'baro bo'lishi, tirik baliqlarning osmonga talpinishi - butun odamzotning talpinishiga qiyoslanganini kuzatamiz. Sotuvchi esa hukmni ijro etuvchi - ajal qiyofasida tasvirlangan. Ayolning qirmizi qon lablaridan cho'chib ketgan qahramonimizning ko'ngil aynishi - avval boshdan u haqidagi (Ayol haqidagi) hayollarining bari harom ekanligining simbolistik ifodasi bo'lib xizmat qilgan. Unga tuproq tortgan ham qahramonning o'zi! Faqat kekxa, mo'ysafid kishi u! Hayotni anglagan, halolni biladigan, barchasini tuproqqa qorishib ketishini his etgan - tuproq motivining ifodachisi bo'lgan detal-obraz u.

Asar so'ngida qo'llanuvchi tush motivi hikoyaning realistik voqelikdan syurrealistik obrazlilikka aylanganini ko'rsatadi. Demakki, hikoyada ijobiy va salbiylikka ajraluvchi obrazlar majvud emas. Undan olinuvchi g'oya esa - jo'n va sodda. Ana shu soddalik ortida esa murakkablik, undan ichkarida murakkab soddalik (Gyote fikri) yuzaga keladi. "Xayolimda esa faqat bir manzara - sotuvchining baliq boshini urib majag'lagani va ayolning qip-qizil og'zi aylanar, aylanar va yana aylanarmish". Bu kelma navbat dunyoda har birimizning o'z balig'imiz, o'z yo'lagimiz va o'z xazonrezg kuzagimiz borligi inkor etib bo'lmas haqiqatdir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Ulug'bek Hamdamning ushbu "Tosh yoki Yovuzlikning tug'ilishi" hikoyasida yakka shaxs obrazining umumlashma darajasigacha o'sib chiqishida ichki konfliktning, psixologik va tasviriy metodlarning qo'llanilishi ko'p qirralik yechimlar va xulosalarning kelib chiqishiga, inchunun, asar o'qishliligiga ijobiy ta'sir o'tkazgan. O'ylaymizki, kelajakda bu hikoya tatbiqida tanqidiy-falsafiy talqinga ega maqolalar, tasavvufiy tahlillar, yanada kengroq ma'no qatlamlarni namoyon qiluvchi ilmiy-badiiy topilmalarni kashf etamiz.

BIBLIOGRAFIYA:

- "Adabiyot nazariyasi asoslari", Dilmurod Quronov, 2018, T:Navoiy universiteti
"Adabiyot nazariyasi", I.Sulton, 1980-Toshkent
"Vatan haqida qo'shiq", Ulug'bek Hamdam, 2019, T:Akademnashr
Qur'oni karim, Alouddin Mansur tarjimasi, 1991, T:Sharq
"Adabiyotshunoslik asoslari", To'xta Boboyev, 1979 Toshkent
"Adabiyot nazariyasi", H.Umurov, 2002-Toshkent
"Adabiyotshunoslik lug'ati", D.Quronov, Z.Mamajonova, M.Sheraliyeva, 2010, T:Akademnashr